

«Uzbekistan Airways» - Myunxendagi "f.re.e - Die Reise- und Freizeitmesse" sayyohlik ko‘rgazmasining ishtirokchisi «Uzbekistan Airways» Germaniyaning Myunxen shahrida 19-23 fevral kunlari bo‘lib o‘tayotgan "f.re.e - Die Reise- und Freizeitmesse" xalqaro sayyohlik ko‘rgazmasida birinchi marotaba o‘z xizmatlarini namoyish etmoqda.

«Uzbekistan Airways» aviakompaniyasining yagona stendi O‘zbekistonning Germaniyadagi elchixonasi va Xususiy sayyohlik tashkilotlari uyushmasi bilan birgalikda tashkil etildi. Tadbirda «Uzbekistan Airways» aviakompaniyasi vakolatxonalari bilan bir qatorda “Avrud”, “Elan Express” va “Ulysse Tour” milliy sayyohlik kompaniyalari ham o‘z xizmatlarini namoyish etmoqda. "F.re.e - Die Reise- und Freizeitmesse" - 1970-yildan beri Markaziy Yevropaning marvarid-shahri hisoblangan, Bavariya federal davlatining poytaxtida muntazam ravishda o‘tkaziladigan eng yirik sayyohlik va dam olish tadbiridir. Ekspozitsiyalarning umumiy maydoni 86 ming kvadrat metrni tashkil etib, sayohat va hordiq bozorining barcha yo‘nalishlarini qamrab oladi. Statistik ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu tadbirga tashrif buyuruvchilarining 93 foizi o‘z sayohatlarini ko‘rgazma davomida olingen ma‘lumotlarga asoslanib rejalashtirishgan.

Bu yil unga 150 mingdan ortiq kishi tashrif buyurishi kutilmoqda. «Uzbekistan Airways» aviakompaniyasining stendida ko‘rgazmaga tashrif buyuruvchilar aviakompaniyaning barcha xizmatlaridan foydalangan holda yangi yo‘nalishlar, parvozlar jadvali va geografiyasi haqida ma‘lumot olishlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ekologik, tog‘chang‘isi, tarixiy-me’ moriy, madaniy, ma’rifiy, gastronomik va boshqa yo‘nalishlarining diqqatga sazovor joylarini o‘rganishlari mumkin. Shuningdek “F.re.e - Die Reise- und Freizeitmesse” maydoni «Uzbekistan Airways» aviakompaniyasining Myunxenga yangi yo‘nalishini Yevropa Ittifoqi sayyohlari e‘tiboriga taqdim etish uchun yaxshi imkoniyat bo‘ldi.

UZBEKISTAN AIRWAYS



Uzbekistan
A4.527

Eslatib o‘tamiz, yozgi navigatsiyada «Uzbekistan Airways» Toshkent-Myunxen-Toshkent yo‘nalishida chorshanba va yakshanba kunlari haftasiga 2 marotaba muntazam qatnovlarni amalga oshira boshlaydi.

Statistikaga ko‘ra, 2019-yilda O‘zbekistonga tashrif buyurgan nemis sayyoohlari soni avvalgi davrga nisbatan deyarli to‘rt baravarga ko‘paygan. Bunda O‘zbekiston tomonidan Germaniya fuqarolari uchun vizasiz rejimning joriy etilishi, shuningdek, “Buyuk Ipak yo‘li” bo‘ylab sayyoohlilik yo‘nalishi tobora ommalashib borishi muhim rol o‘ynadi.



[Download PDF](#)